

Dilafro‘z HAYDAROVA
Dilshoda OBLOQULOVA

ATTESTATSIYA ONA TILI va ADABIYOT

Malaka imtihoni va kasbiy sertifikat
uchun

TESTLAR TO‘PLAMI

Gologrammasiz kitob qalbaki
hisoblanadi

Toshkent
«Spectrum Media Group»
2025

1-variant

1. Qaysi gaplarda qo'shimchalar ta'sirida bir so'zning tovush tarkibida ikki xil fonetik o'zgarish ro'y bergan?

1. Inson o'z umrining hisobli bo'lishini hamisha kech anglaydi.
2. Jo'jalarning sanog'ini bilmadim.
3. Davr qiynoqlari vaqtincha – hali hamma narsa oldinda.
4. Radiodan o'ynoqi musiqa yangradi.

- A) 1, 2, 3, 4
 B) 3, 4
 C) 2, 3, 4
 D) 1, 4

2. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A) *feysbook, fashud, blogger*
 B) *Instagramm, fas-food, arzi ahvol*
 C) *Hifzi lison, bordi-keldi, fastfud*
 D) *feysbuk, arzi ahvol, fast-food*

3. U o'z so'zida turadigan, barcha hunarlarga mohir. O'zi qanchalik bir ishga mohir bo'lsa, bo'lajak turmush o'rtog'idan ham shuni talab qiladi. Ushbu ta'rif qaysi xalq dostoni qahramoniga tegishli?

- A) *Kuntug'mish* B) *Barchin*
 C) *Bibi Hilol* D) *Xolbeka*

4. Xalq qoshiqlarining tegishli turini mos tanlang.

1. «Omonyor»;	a) Mavsum-marosim;
2. «Chittigul»;	b) Mehnat qoshiqlari;
3. «Suz xotin»;	c) Bolalar uchun
4. «Mayda-mayda»;	aytilgan qoshiq;
5. «Alla».	d) Lirik qoshiq;
	e) Bolalar qoshigi.

- A) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c, 5-e
 B) 1-d, 2-c, 3-e, 4-b, 5-a
 C) 1-b, 2-c, 3-a, 4-b, 5-c
 D) 1-d, 2-e, 3-a, 4-b, 5-c

5. Quyidagi iboralar va ularning ma'nolarini moslang. Ortiqcha ma'no mavjud.

	a) Juda xursand bo'lmoq;
1. Yuz-ko'zini tirishtirmoq;	b) G'am-tashvishga tushmoq;
2. Tili zarda bo'lmoq;	c) Xafa bo'lib, achchiqlanib gapirmoq;
3. Ko'ngliga g'ulg'ula solmoq;	d) Yomon niyat bilan qaramoq;
4. Boshi osmonga yetmoq;	e) Norozi bo'lishni yuz-ko'z bilan ifodalamoq;
5. Ko'zi qotmoq.	f) Nimadandir hayratlanib, hayajonlanib qolmoq.

- A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-f, 5-d
 B) 1-c, 2-e, 3-a, 4-d, 5-b
 C) 1-f, 2-d, 3-e, 4-b, 5-a
 D) 1-e, 2-c, 3-b, 4-a, 5-f

6. Paronim bilan bog'liq xato bor gapni aniqlang.

- A) *Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanqlar, nevarachevaralarimni narigi ming yillikka o'tqazib qo'yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o'zim ketaman.*
 B) *Uning xoli juda chiroyli edi.*
 C) *Uni xoliga olib chiqdi.*
 D) *Hol so'z turkumi haqida ma'lumot bering.*

7. Moslashtirishli test. Quyidagi terminlar va ularning ta'riflarini moslang. Ortiqcha ta'rif mavjud.

Terminlar:	Ta'riflar:
1. Atmosfera;	a) Yurak shifokori;
2. Kardilog;	b) Oltita qismdan iborat o'zbek musiqasi asari;
3. Shashmaqom;	c) Dehqonchilik;
4. Materik;	d) Yerning va boshqa sayyoralarni o'rab turgan gaz qatlami;
5. Raiyat.	e) Qit'a;
	f) Xalq.

A) 1-d, 2-a, 3-b, 4-e, 5-f

B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d, 5-f

C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-e, 5-f

8. «Qutadg'u bilig» asarini she'riy yo'l bilan ommabop qilib bugungi o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?

A) *Boqijon To'xliyev*

B) *Qayum Karimov*

C) *Sanjar Sodiq*

D) *Ozod Sharafiddinov*

9. «...»da afsonaviy hukmdor Bharataning avlodlari bo'lgan ikki qondosh sulolaning toj-taxt uchun kurashi tasvirlansa, «...»da Ayodha shahzodasi Ramaning o'z rafiqasi Sitani asirlikdan qutqarish yo'lidagi qahramonliklari tasvirlanadi. Shuningdek, bu asarlarda ham qadimgi hindlarning e'tiqodi, falsafasi, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari aks etgan. Nuqtalar o'rniga mos javoblarni toping.

A) *Ramayana/Mahabharat*

B) *Mahabharat/Ramayana*

C) *Mahabharat/Vedalar*

D) *Vedalar/Mahabharat*

10. Quyidagi qaysi gaplarda paronimlik bilan bog'liq xatolik uchraydi?

A) *Tambur nolasi go'yo yillar davomida zanglab ketgan vujudidagi dardlarni eritganday bo'ldi.*

B) *Sherzod xiyla narida uni kuzatib turgan bu yigitga sinchiklab qarab, birdan eti jimirlab ketdi.*

C) *Opa qurtingizdan menga ham bersangiz bo'lardi, o'zingiz ham suzma, qatiqlar sotib naq pariday oqarib ketibsiz-a.*

D) *Kompaniyamizning foiz ulushidan u ham olishga haqli, chunki otasi yetarlicha unga sarmoya kiritgan.*

11. Oybek domla nihoyatda ziyraklik bilan, ko'pchilik nomdor insonlarda uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg'uborlik bilan opaning gaplarini tasdiq etdi.

Gapda qo'llangan yasama so'zlar va so'z yasovchi qo'shimchalar miqdorini toping.

A) 7 ta / 7 ta

B) 5 ta / 7 ta

C) 6 ta / 5 ta

D) 5 ta / 5 ta

12. Vahobjon boyagi qiz ko'rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi.

Gapdagi o'zi qo'shilgan so'zni boshqa so'zga bog'laydigan qo'shimchalar miqdorini toping.

A) 2 ta

B) 3 ta

C) 4 ta

D) 5 ta

13. «Rahmat sizga xonim» hikoyasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotni toping.

A) *Luella xonim Rojerning qilmishlari uchun uni politsiyaga topshirmadi.*

B) *Luella xonim Rojerga «Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomonyo'lga boshmasin» deb maslahat beradi.*

C) *Luella xonim hamyonini Rojerga tashlab ketmadi, chunki unga bo'lgan ishonchi qolmagandi.*

D) *Luella xonim Rojerga «Shunday ishlar qilganmanki, imkoni bo'lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo'lardim, o'g'lim», - dedi.*

14. Lutfiy qaysi g'azalida yorning yuzini oppoq yonib turgan chiroqqa o'xshatadi?

- A) «*Ne bo'lursan*
B) «*Xoh inon, xoh inonma*»
C) «*Ayoqingg'a tushar har lahza gisu*»
D) «*Bu ko'nguldur, bu ko'ngul*

15. Nodirabegim o'z davrida ijodkor ayollarga she'riyat ilmidan dars berdi va ijodida muammo – she'rda fikrni yashirin ifodalash san'atini mukammal egallay olgan shoirlarimizdan hisoblanadi. Ushu ma'lumot to'g'rimi?

- A) *ha, to'g'ri*
B) *noto'g'ri*

16.

1. chama son -	a) Savlatlarni mashinaga saksontadan yukladik.
2. dona son -	b) Chorak asr davomida saqlanib kelinayotgan ushbu yodgorlik bebaho xazinamiz ekanligini unutmang.
3. kasr son -	c) Fikrimcha, ular tog' oralab soat tonggi beshlarda o'tishgan.
4. taqsim son -	d) Umid jamg'armasi tomonidan iste'dodli yoshlarning o'n nafari Germaniyaga o'qish uchun yuborildi.

- A) *1-d, 2-b, 3-c, 4-c*
B) *1-a, 2-d, 3-b, 4-c*
C) *1-a, 2-d, 3-c, 4-b*
D) *1-c, 2-d, 3-b, 4-a*

17. Qaysi gapda sodda yasama holat ravishi ishtirok etgan?

- A) *Dushman bilan tortishayotganingizda ham mardlarcha fikr bildiring.*
B) *Ular asta-sekin ko'zdan o'lislab borishardi, biz esa ularni kuzatib qoldik.*

C) *Olmaxon yerdan ko'ra daraxtda yanada tezroq yuguradi.*

D) *Kemtik oy cho'qqilar orasidan mo'ralaydi, Jamila esa oyga termilib zavqlanardi.*

18. Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi.

Ushbu gapda qaysi nisbatdagi fe'llar ishtirok etgan?

- 1) aniq nisbat; 2) o'zlik nisbat;
3) majhul nisbat; 4) orttirma nisbat;
5) birgalik nisbat.

- A) *1, 3, 4* B) *1, 3, 5*
C) *1, 3, 4, 5* D) *2, 4, 6*

19. Oybekning qaysi she'ri «O'qi va sev!» Buning ismi yosh O'zbekiston» misralari bilan yakun topadi?

- A) «*O'zbekiston*»
B) «*Kuz yomg'iri*»
C) «*Qoraxat*»
D) «*Na'matak*»

20. Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasida nima musht kabi yumulmay qolgan deya ta'riflangan?

- A) *Temur Malik ko'zi*
B) *Sultonbegim*
C) *shahzodalar*
D) *saltanat*

21. Oybekning «Navoiy» romanida «Tarix ko'rsaturkim, ...lar bilan bahamjihat bo'lgan ko'p safarlar benihoyat foje oqibatlar tug'dirmushdir. ... larning mulohazasida haqiqatdan ko'ra xurofot ziyodaroqdir». Navoiy qaysi kasb egalariga shunday ta'rif bergan?

- A) *askarlarga* B) *shoirlarga*
C) *munajjimlarga* D) *amaldorlarga*

- 22.** Bog'chada yosh-yosh qizchalar va o'g'il bolalar davra qurib o'ynashmoqda. Berilgan gapdagi kesimga bevosita bog'langan bo'laklar miqdorini toping.
- A) 2 ta
B) 3 ta
C) 4 ta
D) 5 ta
- 23.** Qaysi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ikki nuqta qo'llanishi lozim?
- A) *Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi // yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi.*
B) *Yurt tinch // sen tinch.*
C) *Ehtimol, Sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.*
D) *Oyim endi o'rnidan turayotgan edi // eshik shaxt bilan ochildi*
- 24.** Erkin A'zamning «Tanho qayiq» dramasi kim hushtakchi Genjamurodga «Hushtak chalish – shaytonni chaqirish bilan barobar»ligini aytadi?
- A) *Orol bobo*
B) *Jumaboy*
C) *Tilovbergan*
D) *Amet*
- 25.** 13 yoshida g'isht zavodiga ishga kirib, g'isht quyishni o'rganib olgach oldida ayvoni bo'lgan 2 xonali uy qurgan ijodkor kim?
- A) *Shavkat Rahmon*
B) *Abdulla Oripov*
C) *Omon Matjon*
D) *Sharof Boshbekov*
- 26.** Qaysi gapda olmosh efemizm sanaladi?
- A) *O'zlari ijozat bersalar, mashg'ul bo'lur edik.*
B) *Odam ham o'z-o'ziga dushman bo'lishi mumkinmi?*
C) *O'shalarining gapiga kirib ayniding-qo'yding.*
D) *Bugungi ishimiz sizga ajoyib tuyilayotgandir.*
- 27.** Bizning kutubxonamizning elektron tizimi dunyo kutubxonalari kompyuter tarmog'iga ulangan kutubxonalardan biri hisoblanadi. Ushbu gapda qanday uslubiy xato bor?
- A) *So'zni noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq*
B) *So'zni o'rinsiz takrori bilan bog'liq*
C) *So'zni tushirib qoldirish bilan bog'liq*
D) *So'zni ortiqcha qo'llash bilan bog'liq*
- 28.** «Sinkveyin» metodining qaysi qatorida mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi to'rt so'zdan iborat birikma yoki gap ishtirok etadi?
- A) *beshinch qatorida*
B) *ikkinchi qatorida*
C) *uchinchi qatorida*
D) *to'rtinchi qatorida*
- 29.** Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik kuzatilgan?
- A) *Korxonaga yangi zamonaviy texnologiya joriy etildi.*
B) *Ajdodlarimiz merosini, albatta, o'rganamiz.*
C) *Zavodda yangi texnologiya o'rnatildi.*
D) *Toshkentda ustozlardan saboq olasiz, ukam.*
- 30.** Shu kunlarda bahorga zorman, Tanxastalik ezadi ruhim. Tanho emas, qatorida borman, Yana neni izlaydi siqim? Ushbu she'rning turoqlanishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
- A) 4 + 5
B) 5 + 3
C) 4 + 6
D) 3 + 7

- 31.** Ushbu qit'ada qaysi illat ulug'langan?
Rahraviki, toji hidoyat boshidadur,
Yo'q bok, anga havodisi aflok toshidin.
Hudhudki, qo'ydilar azaliy toj boshig'a,
Tushgaymu jola yogg'on ila toj boshidin
A) *viqorlilik va hilm*
B) *rost sozlash*
C) *to'g'rilik va hidoyat*
D) *mol dunyoga hirs qo'ymaslik*
- 32.** Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur,
bu ko'ngul,
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur,
bu ko'ngul.
Ushbu baytda raviy va qofiyadosh so'zni
toping.
A) *qiladurg'on - r raviy*
B) *rasvo, shaydo - o raviy*
C) *ko'ngul - l*
D) *qiladurg'on - n*
- 33.** Dilbaro, Yusuf jamoli sendadur,
Dilraboliqningki xoli sendadur.
Ushbu baytda qo'llangan she'riy
san'atlarni toping.
A) *Talmeh, Nido*
B) *Tashbeh, talmeh*
C) *nido, tashbeh*
D) *istiora, nido*
- 34.** Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf' o'zingga ko'prakdurur.
Quyidagi berilgan hikmatlardan qaysi
biri ushbu hikmatning davomi bo'la oladi?
A) *Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.*
B) *Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur.*
C) *Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.*
D) *Tiling bila ko'nglungni bir tut.*
- 35.** Berilgan so'zlardan qaysi birining
izohi musofirlik degan ma'noga to'g'ri
keladi?
- A) *G'arib*
B) *Qalandar*
C) *Shafiq*
D) *G'urbat*
- 36.** Pedagogik nazokat – bu
A) *O'qituvchi axloqiy-ma'naviy
qiyofasini namoyon etuvchi me'yor
tuyg'usi yoki xulq va odob qoidalariga
rioya qilishi demakdir*
B) *ota-onalar jamoasi bilan yaxshi
muloqot qila olishi*
C) *Nutq qobiliyatidan to'g'ri foydalana
olishdir*
D) *O'qituvchining nazariy bilimlarni
mukammal egallashi*
- 37.** Pedagogik nazokatning uzluksizligini
qaysi vositalar ta'minlaydi?
A) *Pedagogik nazokat o'qituvchining
butun pedagogik faoliyatida
sayqallashib takomillashib boruvchi
jarayon; pedagogik nazokat, odatda,
tugallangan shaklga ega bo'lmay,
insoniy fazilatlar evaziga uzluksiz
boyib boradi*
B) *O'qituvchi pedagogik nazokatning
tarkibiy qismlarini ijtimoiy muhitga
va odamlarning yashash tarziga, urf-
odatiga qarab o'zgartirmasligi*
C) *O'qituvchi pedagogik nazokatning
nozik qirralarini chuqur egallashga
doim intilishi talab etiladi*
D) *Barchasi to'g'ri*
- 38.** Pedagogik nazokat doimo nimani talab
qiladi?
A) *ijodkorlik va izlanishni*
B) *psixologik yondashuvni*
C) *xushmuomalalikni*
D) *doimiy hamkorlikni*
- 39.** O'quvchilar bilan munosabatlarda
pedagogik nazokatni qo'llash natijasida
nimalarga erishishi mumkin?

- A) *O'qituvchi o'quvchilarning xarakterini, ichki dunyosini yaxshi bilib oladi, o'quvchilar bilan munosabatda do'stona muloqot qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi.*
- B) *O'qituvchi o'quvchilar bilan chin ko'ngildan bir-biriga yaqin bo'ladi, ba'zan eshitmasligi kerak bo'lgan o'quvchilarning o'zaro sirli gaplarini eshitmasdan o'tib ketishi mumkin, negaki o'zgaralar gapini tinglash odobsizlikdir.*
- C) *O'qituvchi ba'zan o'quvchilar jamoasining kundalik ishlariga aralashmasligi, jamoada ro'y beradigan ba'zi ko'ngilsiz hodisalarni ijobiy hal etishni jamoa faollari zimmasiga havola etishi mumkin.*
- D) *Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri*
40. Yosh avlodni tarbiyalashda o'qituvchi pedagogik nazokatning qaysi jihatlari o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak?
- A) *emotsional his-tuyg'ular va kechinmalarda, stress va affekt holatlarida o'zini boshqara olish qoidalariga rioya qilish o'zining xulq-atvor xususiyatlarini doimiy muvozanatda saqlagan holda qo'llash*
- B) *dars jarayonida hissiy, aqliy bilim berishda belgilangan muayyan psixologik va fiziologik me'yorlarga asoslanish, manmanlikka yo'l qo'ymaslik, o'z holatidan boshqa holatga o'tishdan saqlanish*
- C) *pedagogik nazokat asosida o'qituvchi pedagogik odob va axloq normalarini o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitib borishi*
- D) *A, B javoblar to'g'ri*
41. Pedagogik nazokatning qaysi xususiyatlari hozirgi kunning eng muvaffaqiyat poydevori hisoblanadi?
- 1) *O'qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib, o'zida muloqotning erkin demokratik asosini shakllantiradi.*
- 2) *Sinf jamoasida ongli intizomni vujudga keltiradi; o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishadi.*
- 3) *O'qituvchi sinfda yakka (avtoritar) hukmronlikdan, erkin muloqotga o'tib, demokratik prinsiplar asosida pedagogik faoliyatga kirishish shaklini qo'llaydi.*
- 4) *O'quvchilarni ongli ravishda tartib-intizomga muloqot asosida o'rgatadi.*
- A) *1, 2, 3*
- B) *1, 3, 4*
- C) *1, 2, 3, 4*
- D) *2, 3, 4*
42. Pedagogik axloq va odobning asosiy xususiyatlaridan biri bu?
- A) *Nutq*
- B) *Dilkashlik*
- C) *Muqobilik*
- D) *xushmuomalalik*
43. Psixolog olimlar dilkashlikni necha toifaga bo'ladi?
- A) *4*
- B) *3*
- C) *2*
- D) *5*
44. Ekstravert shaxslar qanday toifadagi kishilar hisoblanadi?
- A) *Faol, jiddiy, vazmin va tashqi ta'sirchanlikka moyil*
- B) *Tez, ko'p gapiradigan*
- C) *Erkin muloqot qila oladigan individual*
- D) *O'zini nazorat qila oladigan, ichki xotirjamlikka ega*
45. O'qituvchining qaysi xususiyati turli pedagogik vaziyatlarda paydo bo'ladigan oddiy insoniy dilkashlik tayanadi?
- A) *bilimdonlik*
- B) *kommunikativ madaniyat*
- C) *pedagogik takt*
- D) *nutqiy faoliyati*

46. Xorijiy tillarni bilish va nutq madaniyatiga ega bo'lish o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasiga mansub zarur bilimlar hisoblanadi?
- A) *Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish*
 - B) *O'quv jarayonini rejalashtirish*
 - C) *O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish*
 - D) *Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash*
47. Muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tish o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasiga mansub harakatlar hisoblanadi?
- A) *Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish*
 - B) *O'quv jarayonini rejalashtirish*
 - C) *O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish*
 - D) *Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash*
48. O'quvchilar erkin rivojlanishlari va o'zlarini namoyon eta olishlari uchun o'zaro hurmat muhitini yaratish o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasiga mansub harakatlar hisoblanadi?
- A) *Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish*
 - B) *O'quv jarayonini rejalashtirish*
 - C) *Ta'lim samaradorligini ta'minlash*
 - D) *Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash*
49. O'quvchilar erishgan yutuqlarning natijalarini tahlil qilish o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasiga mansub harakatlar hisoblanadi?
- A) *Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish*
 - B) *O'quv jarayonini rejalashtirish*
 - C) *Ta'lim samaradorligini ta'minlash*
 - D) *O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish*
50. Dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasiga mansub harakatlar hisoblanadi?
- A) *Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish*
 - B) *O'quv jarayonini rejalashtirish*
 - C) *Ta'lim samaradorligini ta'minlash*
 - D) *O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish*

MUNDARIJA

1-variant.....	3
2-variant.....	10
3-variant	17
4-variant	24
5-variant	31
6-variant	38
7-variant.....	46
8-variant	53
9-variant	61
10-variant.....	68
11-variant.....	75
12-variant.....	82
13-variant.....	88
14-variant.....	95
15-variant.....	101
16-variant.....	107
17-variant	113
18-variant.....	119
19-variant.....	125
20-variant.....	132
21-variant	139
22-variant.....	145
23-variant.....	151
24-variant.....	157
25-variant.....	164
26-variant.....	172
27-variant	178
28-variant.....	185
29-variant.....	192
30-variant.....	198
Javoblar.....	205